

BUXORODA ME'MORIY YODGORLIKLARDAN ARK QO'RG'ONINING  
QURILISH TARIXI VA SOTSIAL JIHATLARI

Savriyeva Dilorom Sirojiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya  
yo'nalishi 1-kurs talabasi E-mail: savriyevadilorom2@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Buxorodagi eng qadimiy va muhim me'moriy yodgorliklardan biri bo'lgan Ark qo'rg'oni tarixiga bag'ishlangan. Unda Ark qo'rg'onining tashkil etilishi, uning siyosiy va strategik ahamiyati, me'moriy tuzilishi hamda asrlar davomida vayron bo'lishi va zamonaviy ma'lumot berilgan. Ark qo'rg'oni hozirda muzey sifatida faoliyat yuritib, Buxoroning diqqatga sazovor joyi bo'lib qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Ark qo'rg'oni, me'moriy yodgorlik, Buxoro amirligi, tarix, madaniy meros, Markaziy Osiyo.

**ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ КРЕПОСТИ АРК  
ОДНОГО ИЗ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ БУХАРЫ**

**Савриева-доч Дилорома Сирожиддинна**

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Студентка 1  
курса социологии факультета социальных наук Электронная  
поята: savriyevadilorom2@gmail.com

**Абстрактный:** Данная статья посвящена истории крепости Арк, одного из старейших и важнейших архитектурных памятников Бухары. В нем описывается создание крепости Арк, ее политическое и стратегическое значение, ее архитектурная структура и ее разрушение на протяжении веков, а также современная информация. Крепость Арк сейчас является музеем и остается достопримечательностью Бухары.

**Ключевые слова:** Бухара, крепость Арк, памятник архитектуры, Бухарский эмират, история, культурное наследие, Центральная Азия

Savriyeva is the daughter of Dilorom Sirojiddin

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek 1st-year student of Sociology, Faculty  
of Social Sciences E-mail: savriyevadilorom2@gmail.com

**Annotation:** This article is devoted to the history of Ark fortress, one of the oldest and most important architectural monuments in Bukhara. It describes the establishment of the Ark fortress, its political and strategic importance, its architectural structure and its destruction over the centuries, as well as modern information. The Ark fortress is now a museum and remains a landmark of Bukhara.

**Keywords:** Bukhara, Ark fortress, architectural monument, Bukhara Emirate, history, cultural heritage, Central Asia

## KIRISH

Buxoroning eng qadimiy va eng mashhur me'moriy yodgorliklaridan biri bu Ark qo'rg'onidir. U shahar markazida joylashgan bo'lib, asrlar davomida siyosiy, harbiy va madaniy markaz sifatida xizmat qilgan. Ark qo'rg'oni Buxoro amirligining poytaxti bo'lib, shaharning eng oliy hukmdorlari yashagan saroy hisoblangan.

Ark qo'rg'onining tarixi:

Ark qo'rg'oni miloddan avvalgi davrlarda, taxminan IV asrda qurilgan deb taxmin qilinadi. Ark qo'rg'onining qurilishi bilan ko'plab afsonalar uchraydi.

Ark qal'asining qurilishi haqidagi afsona

Ajoyib va ertakona, qadimiy va noan'anaviy, qadimgi sharq va sehrliligi - bu shubhasiz "olijanob maskan" Buxoro shahri. Buxoroning qadimiyligini va Sharqning sehrliligi muhitini his qilish uchun labirintni eslatuvchi tor ko'chalarga kirib, uylarning qadimiy devorlarini ko'zdan kechirish yoki hech bo'lmaganda eski bozorning xushbo'y, sharq guldastasi ila shirin havosini his qilish kifoya. Buxoroni abadiy sevib qolish ham ehtimoldan xoli emas! Qadimdan Buxoro afsonalarga to'la. Afsonalardan biriga ko'ra, Buxoroning birinchi aholisi, fors shahzodasi Siyovush qurgan Ark qal'asi o'rnida qo'nim topgan. Shahzoda Afrosiyob podshohining qizini qo'lini so'rash uchun kelganida, otasi yigitga bir shart qo'yadi.

Unga ko'ra yigit bitta buqa terisidek o'lchamli hududda istehkom o'rnatishi, shundan so'nggina to'y bo'lishi kerak edi. Aqlli yigit qo'yilgan shartlardan kelib chiqib, qarorgoh tuzilishini o'ylab topadi. U terini ingichka kesimlarga kesib, bir - biriga bog'lab qo'yadi va shu doirada saroyning kichikroq nusxasini quradi. Shunday qilib, bu joyda to'liq qal'aning qurilishi boshlandi. Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniyar sulolasi davrida ansambl holiga kelgan.

Ark qo'rg'oni haqida ma'lumotlar:

Ark qal'asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda - Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to'xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'ldirilganidan keyin Buxoroning Sharq darvozasi yonida ko'milgan degan rivoyatlar bor.

VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O'sha davrda ark oldida katta maydon - registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'onlari bo'lgan. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar - shahriston joylashgan.

Ko'plab me'moriy yodgorliklarni o'zida jamuljam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko'p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal'asida hukmdorlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar-joy binolari bunyod etilgan.

Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani – rabot qurshab turgan.

Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom singari ulug' insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to'g'risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: "Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko'rmaganman va umrimda boshqa ko'rmadim ham. Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning o'z fani bo'yicha o'rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kitobxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas", degan ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi to'g'risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899-939-yillar) "Buxoro tarixi" kitobida ham uchraydi. Buxoro podshosi Bidun bu qal'ani qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqni ko'ra biladigan dono kishilarni chaqiradi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal'asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi yer ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m cha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g'arbdan sharqqa cho'zilgan noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Janubi-sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimiy va hamisha navqiron Buxoro shahrining g'arb tomonida joylashgan. Qal'a devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi.

Ark qal'asi bir necha marta ta'mirlangan va qayta qurilgan. Ko'tarila boruvchi yo'l (pandus) orqali arkning g'arb tomonidan ulkan yog'och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o'ralgan.

Ark qal'asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar – "guldastalar" konstruksiyasi va ular oraliqidagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon – yo'lakning chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomondagi tokchalarning ba'zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.

"Guldasta"lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto'la – kanaxonalar bo'lgan. Dolonning o'ng tomonidagi o'rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvofiga Navro'z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo'lgan).

Dolondan chiqaverishda to'pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto'lada esa qiynoqxona bo'lgan. Undan sal narida (g'arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan.

Ark qal'asining shimoli-g'arb burchagida to'pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qiladigan xona) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida

devonbegrining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan.

Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli – ko'rinishxona o'rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo'g'onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan.

Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning Sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan.

Arkning markazida o'rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan.

Hammomning sharqida duxtarxona – amir haramidagi qizlar uylari o'rnashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Battol g'ozzi mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'ylab g'ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o'q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20%i saqlangan. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan.

Ark ansambli mustaqillik yillarida so'nggi bor restavratsiya qilingan.

Agar Buxoro shahrining me'moriy yodgorliklarini o'rganmoqchi bo'lsangiz, ishni Ismoil Somoniy maqbarasi (IX-XII asrlar) bilan tanishishdan boshlagan ma'qul.

Ushbu maqbara Buxoro Arkining g'arb tomonida, undan uzoq bo'lmagan yerda joylashgan.

Ark qo'rg'oni 1920-yilda Buxoro amirligi bolsheviklar tomonidan bosib olinganda jiddiy Zarar ko'rdi. Qo'rg'onning katta qismi "bombardimon" natijasida vayron bo'ldi. Shunga qaramay, uning ba'zi qismlari saqlanib qoldi va hozirda tarixiy yodgorlik sifatida qayta tiklangan.

Ark qo'rg'onining zamonaviy ahamiyati:

Hozirda Ark qo'rg'oni Buxoro shahrining eng diqqatga sazovor joylaridan biri hisoblanadi.

U sayyohlar va tarix ixlosmandlari uchun ochiq bo'lib, muzey sifatida faoliyat yuritadi. Muzeyda Buxoro amirligi tarixi, amirlarning hayoti, hunarmandchilik buyumlari va boshqa tarixiy eksponentlar namoyish etiladi.

Xulosa. Ark qo'rg'oni Buxoroning boy tarixiy va madaniy merosini o'zida mujassam etgan yodgorlikdir. Asrlar davimoda u Shahar hayotining markazi bo'lib xizmat qilgan va bugungi kunda ham Buxoroning o'tmishini eslatib turadi.

Ushbu yodgorlik faqat Buxoro emas, balki butun Markaziy Osiyo tarixidagi muhim inshootlardan biri sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muminov I.A. "Buxoro tarixi"
2. Buxoro davlat muzeyi nashrlari
3. Ilmiy maqolalar:Yoqubov O."Buxoroning Ark qo'rg'oni:tarix va zamonaviy tiklanish jarayonlari",O'zbekiston tarixi jurnali va Islomov R."Buyuk Ipak yo'li va Buxorodagi tarixiy obidalar"Markaziy Osiyo madaniy merosi .
4. <http://tarixchi.zn.uz/tarixiy-obidalar-2/buxoro/ark-qal%E2%80%99asi/>
5. <https://uzbekistan.travel/uz/o/ark-qalasining-qurilishi-haqidagi-afsona/>